

**KORREKSION PEDAGOGIKA PEDAGOGIKA FANINING TARMOG'I
SIFATIDA**

**КОРРЕКТИВНАЯ ПЕДАГОГИКА ПЕДАГОГИКА КАК СЕТЬ НАУКИ
CORRECTIVE PEDAGOGY PEDAGOGY AS A NETWORK OF SCIENCE**

Asqaraliyeva Durdona

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va
adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotsatsiya. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni asosiy maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyajli, imkoniyati cheklangan bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar tahsil oladigan umumta'lim maktablarida ham bilim olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob bera olishi kerak.

Аннотация. Инклюзивное образование – это процесс, направленный на интеграцию детей с ограниченными возможностями в образовательный процесс и адаптацию общеобразовательных школ к детям с ограниченными возможностями, основной целью которого является социальная справедливость и равенство. Инклюзивное образование включает в себя детей с особыми потребностями, а инвалидность допускает только здоровых. Дети могут получать образование не только

в общеобразовательных школах, но и в специальных школах. Для этого и школа, и педагоги-воспитатели должны быть готовы к системе инклюзивного образования, а уровень школы, физические условия и факторы, позволяющие учиться, должны полностью отвечать требованиям этого образования.

Abstract. *Inclusive education is a process that aims to integrate children with disabilities into the educational process and adapt general education schools to children with disabilities, with social justice and equality as the main goal. Inclusive education includes children with special needs and disabilities only admits that healthy children can be educated not only in general schools, but also in special schools. For this, both the school and the teachers-educators must be ready for the inclusive education system, and the school's level, physical conditions, and the factors that make it possible to study should be able to fully meet the requirements of this education.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, didaktika, korreksion pedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya, rivojlanish, nuqsonli bolalar.*

Ключевые слова: *педагогика, дидактика, коррекционная педагогика, педагогика глухих, тифлопедагогика, олигофренопедагогика, логопедия, развитие, дети-инвалиды.*

Key words: *pedagogy, didactics, correctional pedagogy, deaf pedagogy, typhlopedagogy, oligophrenopedagogy, speech therapy, legal, children's equipment.*

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Bu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan.

Maxsus ta'lim dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi. Korreksion pedagogikaning oldiga qo'ygan maqsadi jamiyatda nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimini yo'lga qo'yish va ularga yordam berishdir. Ayni shu jihatlarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda – "Yo'l xaritasi") 2-ilovaga muvofiq;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlash belgilab berildi.

Korreksion pedagogika —rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy kamchilikka ega bolalarni induvidual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan. Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida e'tirof etilganligiga uncha ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada "difektalogiya" tushunchasida qo'llanib kelardi. Maxsus pedagogika fanining maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy adaptatsiyasi va rehabilitatsiyasini amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha ertaroq aniqlab, bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan ushbu tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

1. Surdopedagogika (lotincha surdus – kar, gung so'zidan olingan) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

2. Tiflopedagogika (yunoncha tiflos – ko'r, so'qir so'zidan olingan) – ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

3. Oligofrenopedagogika (yunoncha oligos – kam, fren – aql), so'zlaridan olingan, – aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

4. Logopediya (yunoncha logos – so'z, padeo – tarbiya so'zlaridan olingan) – og'ir nuqt nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

5. Tayanch motor harakatlarida nuqsoni bor bolalar.

Korreksion pedagogikaning asosiy mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega .

Ushbu jarayon o'quvchilar ijtimoiy hayoti va imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarni tiklash yana aqliy va jismoniy nuqsonlarini pasayishiga yordam beradi.

Anamal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhga esa davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarni tashkil etish talab etiladi. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli hissa qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib ulg'ayishigaga katta umid bilan qaraladi.

Bola huquqlari xalqaro konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog'lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" Mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.

2. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim"- "Opereyshen Mersiy" Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.

3. Yuneskonning 2003 yil O'zbekistonda 2 – 4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv Ta'lim» ga oid seminarii xujjatlari.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.